

XO'JALIK SHARTNOMASI

01 -sonli

Moliya va bank ishi kafedrası

2024-yil « 01 » April

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Moliya va bank ishi kafedrası (bundan keyin matnda «Xizmat ko'rstuvchi» deb yuritiladi) nomidan **Raximov G'anisher Xudoyqulovich**, nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan va «**NAFIS TAMINOT**» MCHJ (bundan keyin matnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi), rahbari **Chorshanbiyeva Nafisa Ibragimovna** Nizom asosida ish yurituvchi ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida kelishuvlarga erishdilar:

1. Shartnomaning predmeti

1.1. Tomonlar o'rtasida Buxgalteriya xizmatlari (buxgalteriya hisobotlarini yuritish, yillik moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, soliq hisobotlarini topshirish va shu kabi boshqa xizmatlar) ko'rsatish mazkur shartnomaning predmeti sifatida belgilanadi.

2. Shartnomaning maqsadi

2.1. Tomonlar o'zaro kelishuvga muvofiq korxona faoliyatini yanada rivojlantirish, uning iqtisodiy muammolarini hal qilish, korxonada buxgalteriya hisobini amaldagi qonunchilikka mos ravishda to'g'ri yuritish bo'yicha amaliy yordam qilish shartnomaning asosiy maqsadi sifatida belgilanadi.

2.2. Tomonlarning ko'p qirrali hamkorligi uzoq muddatli sherikchilik, tenglik va samaradorlik, o'zaro manfaatli shartnomalar tuzish tamoyillariga asoslanadi.

3. Tomonlarning majburiyatlari

3.1. Mazkur shartnoma doirasida «Xizmat ko'rsatuvchi» quyidagilarni kafolatlaydi:

- a) korxona faoliyatini yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qilish hamda korxonaning boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishda axborot bilan ta'minlash;
- b) korxona buxgalteriya hisobini yuritishda buxgalteriya standartlariga amal qilish;
- v) korxonada buxgalteriya hisobini yuritishda soliq qonunchiligiga amal qilish;
- d) korxonada buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotlarini belgilangan shakllarda tuzish ;
- e) korxonada buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotlarini belgilangan muddatlarda taqdim etish;

3.2. Mazkur shartnoma doirasida «Buyurtmachi» quyidagilarni kafolatlaydi:

- a) «Xizmat ko'rsatuvchi» tomondan korxona faoliyatini yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi hamda korxonaning boshqaruv tizimi samaradorligini ta'minlovchi ko'rsatilgan buxgalteriya xizmatlari uchun kelishilgan haq so'mmasining 15 % ni oldindan va xizmatlar bajarilgandan keyin 85 % to'lovi o'z vaqtida institut hisob raqamiga o'tkazib berish;
- b) korxonada buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish uchun kerak bo'ladigan axborotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash;
- v) korxonada buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish uchun «Xizmat ko'rsatuvchi» ning vakolatlarini belgilab berish ;

4. Umumiy qoidalar va boshqa shartlar

4.1. Ushbu shartnomaning muddati uzaytirilishi, o'zgarishi yoki bekor qilinishi tomonlar kelishuviga muvofik, dalolatnoma, asosida amalga oshiriladi.

4.2. Korxona ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun institutning hisob raqamiga 10 000 000 (o'n million) so'm mablag'ni shartnomada ko'rsatilgan ishlar bajarilgandan so'ng 15 kun (belgilangan summa son va so'z bilan yozilishi shart) muddat ichida o'tkazib berishi kerak.

4.3. Tomonlar mazkur shartnomadan kelib chiquvchi majburiyatlarni o'zlariga bog'liq bo'lmagan fors-major holatlar sababli bajarmasa yoki lozim darajada bajarmasa, shartnomadan kelib chiquvchi majburiyatlarni o'tashdan ozod etiladilar.

4.4. Fors-major holatlarga oldindan ko'rib va oldini olib bo'lmaydigan yoki oldini olish mumkin bo'lmagan, Tomonlarning xohish-irodalariga bog'liq bo'lmagan va shu bois Tomonlardan hech biriga majburiyatlarni o'tashga imkon bermaydigan holatlar kiradi.

4.5. Mazkur shartnomaga Tomonlar o'zaro kelishuv asosida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan tarzda istalgan vaqtda o'zgartish va qo'shimchalar kiritishga haqli.

4.6. Mazkur shartnomaga qilingan barcha o'zgartish va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilishi va Tomonlarning imzolari bilan tasdiqlanishi lozim.

4.7. Mazkur shartnomaga qilingan barcha ilovalar, qo'shimchalar va o'zgartishlar shartnomaning tarkibiy qismi deb qoraladi.

4.8. Mazkur shartnoma Tomonlar imzolagan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi hamda 2024- yilning «31» dekabr sanasiga qadar kuchda bo'ladi.

4.9. Agar Tomonlardan hech biri shartnomaning muddati tugagunga qadar uning amalda bo'lishi borasida o'z xohish-irodasini 3 (uch) oy oldin yozma ravishda bildirmasa, shartnoma o'z-o'zidan keyingi bir yilga uzaytirilgan deb hisoblanadi.

5. Nizolarni hal etish tartibi

Mazkur shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolarni Tomonlar o'zaro kelishuv asosida qonuniy yo'l bilan hal etadilar. Agar tomonlar o'zaro kelisha olishmasa, nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

6. Yakunlovchi qoidalar

Mazkur shartnoma teng yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi va har bir Tomon uchun bitta nusxa topshiriladi.

7. Tomonlarning yuridik manzillari

MOLIYA VA BANK ISHI KAFEDRASI **Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**

Denov tumani Sharof Rashidov ko'chasi 360-uy.

Tel.:

BANK: milliy bank Denov filiali

X/R: 400110860222107094100350002

INN:207272324 MFO:00845

Rektor:  G'.X.Raximov

(imzo)

MO:



NAFIS TAMINOT MCHJ

(korxona)


Manzil: Qumqo'rg'on tuman Elobod MFY 15-uy

Tel: +998 91 584 95 84

Bank: Biznesni rivojlantirish ATB Qumqo'rg'on BXO

X/R: 2020 8000 8070 0882 0001

INN: 311 100 462 MFO: 01037

Rahbar:  N.I.Chorshanbiyeva

(imzo)

MO:



<ЭЛЕКТРОННО> Платежное поручение через СМН №1 23.04.2024		Отв. Журнал Копия Меморатка	487071183
Дата	23.04.2024		
Наименование плательщика	NAFIS TAMINOT MCHJ		ИИН 23.04.2024 10:02:04 LABS
Детст счёт плательщика	20208000807008820001		ИИН 311100462
Наим.банка плательщика	ТОШКЕНТ Ш. "БИЗНЕСНИ РИВОЖЛАНТИРИШИ БАНКИ" АТБ		Код банка плательщика 01037
Сумма	1 500 000.00		
Наименование получателя	У'юб Респ. Иттифоидет на молли вазиригитининг Ягона галли хисобдари		
Кредит счёт получателя	23402000300100001010		ИИН 201122919
Наим.банка получателя	ТОШКЕНТ Ш. МАРКАЗИЙ БАНКИНИНГ ТОШКЕНТ ШАХАР ХИСОБ-КИ		Код банка получателя 00014
Сумма прописью	ОДИН МИЛЛИОН ПЯТЬСОТ ТЫСЯЧ СУМ 00 ТИЛИ		
Детали платежа	09510-400110860222107094100350002-207272324-09510 09510 01.04.2024 Висланди 01-сонин шартномлига восси ДТТН Молли на банк иши кифедриси ухитувчилари бухгалтерия хисоботи учун тулов.		
Руководитель	_____	Главный бухгалтер	
М.П. БАНК	Проверен	Одобрен	
	_____	_____	

АТБ "Business international bank"

Qimmatig'on BKO

MFO-01037 Висланди

23.04.2024 11:15